

**Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
151\22-sonli shartnoma**

11 dekabr 2022 yil

Guliston sh.

Sirdaryo viloyati Mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati DUK, bir tomondan Nizomi asosida ish yurituvchi direktor Z.R.Bazarov bundan keyin "Buyurtmachi" deb nomlanadi va Sirdaryo viloyati qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi bundan keyin "Bajaruvchi" deb nomlanadi Nizom asosida ish yurituvchi direktor A.Sangirov boshqa tomondan, ushbu shartnomani tuzdilar:

I.Shartnoma mavzusi.

1.1 Guliston tuman Tajribakor MFY Nonvoylar kuchasini joriy ta'mirlash ob'ekti bo'yicha tanlov (tendir) savdolarini tashkil etish.

1.2.Buyurtmachi topshiradi, bajaruvchi tanlov savdolarini tashkillashtirish va o'tkazishni o'z zimmasiga oladi:

1.3.Xududiy qurilishda tanlov savdolarini taskil etis konsalting markazining electron xaridlarini taskil etis xarajatlari Sirdaryo viloyati Mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasining "28" noyabr 2022 yildagi № 1110011106945 sonli lotga asosan QQS bilan 1 000 000 (bir million) so'mni tashkil etdi.

II. Tomonlarning majburiyatlari.

2.1.Buyurtmachi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

- Qurilish-montaj ishlari fizik hajmining elektron nusxasini Bajaruvchiga to'liq hajmda o'tkazish;
- Buyurtmachi, bajaruvchiga shartnoma umumiy qiymatining 30% miqdorida, ya'ni 300 000
- (uch yuz ming) so'm bo'nak mablag'i bilan moliyalashtirish;
- Buyurtmachi shartnoma summasining qolgan qismini (bajarilgan ishlar uchun hisob-faktura ikkala tomon imzolaganidan keyin) tasdiqlangan manzilli dasturga muvofiq 10 kunda moliyalashtirish;

2.2.Bajaruvchi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2022 yil 31 yanvar №46-sonli qaroriga muvofiq tanlov savdolarini tashkillashtiradi;
- Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida "Respublika hududida kapital qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga binoan ob'yekt uchun tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish;
- Buyurtmachiga taqdim etilishi lozim bo'lgan ishtirokchilarning takliflari, elektron reytingi ma'lumotlarining portalga yuklatilgan takliflarning tuzilmasidagi xujjatlarning butligi;

III. Tomonlarning javobgarligi.

3.1.Ish va xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, buyurtmachi har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lovning 0,2% miqdorida penya to'laydi, lekin penya to'lanmagan qismining 50 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim.

3.2.Bajaruvchi tomonidan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazishni kechiktirganligi yoki tender (tanlov) jarayonida g'olib pudratchi aniqlanganligini tasdiqlovchi tanlov bayonini kechiktirib topshirgan har bir kun uchun shartnoma narxining 0,2% miqdorida penya to'laydi, lekin penya miqdori shartnoma summasining 50 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim.

3.3.Agar fors-major holatlari yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha javobgar emaslar.

IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1.Tanlov savdolari tugagandan so'ng, bajaruvchi buyurtmachiga 1 ish kunida tanlov komissiyasining tasdiqlangan bayonnomasini tegishli xujjatlar bilan taqdim etadi.

4.2.Ish va xizmatlar bajarilgandan so'ng, bajaruvchi buyurtmachiga bajarilgan xizmatlarni tasdiqlovchi xisob-fakturani taqdim etadi.

V. Nizolarni hal qilish.

5.1. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani bajarish, o'zgartirish va bekor qilishdan kelib chiqadigan nizo, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Shartnomani bajarish, bekor qilishda yetkazilgan zararni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro kelishuv yo'li bilan xal etolmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Sirdaryo viloyati Guliston tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

VI. Favqulodda vaziyat holatlari

(Fors-major)

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu tabiiy hodisalar va boshqa fors-major holatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va ushbu holatlar shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa:

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati fors-major holatlari kuchga kirgan davrga, shuningdek ushbu holatlar keltirib chiqargan oqibatlarga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi.

6.3. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'proq davom etsa, bajaruvchi va buyurtmachi ishni davom ettirish yoki uni saqlab qolish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini muhokama qiladi.

6.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, unda tomonlarning har biri shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir.

VII. Boshqa shartlar.

7.1. Ushbu shartnomaga kelgusida kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan, taraflar tomonidan imzolangan va muhrlangan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

7.2. Shartnomani bajarishni bir tomonlama rad etish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi ushbu shartnoma birxil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzilgan:

7.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro roziligi bilan amal qiladi va qo'shimcha kelishuv shaklida amalga oshiriladi.

VIII. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI.

"Sirdaryo viloyati Mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati DUK"

Guliston shahar Toshkent k-3 uy

Tel.94345-77-00

STIR 207 252 998


OKNKH

SHXR 20210000100779073001

Moliya vazirligi Yagona G'azna hisob varag'i

XR 301821860244017045201118023

MFO 00363



Z.R.Bazarov

"Sirdaryo viloyati qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi "

Guliston shahar M. Axtamova k. 30 -uy


Tel. 227-64-42

STIR:202 585 476

x/r 2021 0000 3038 3676 6001

TIF Milliy bank Guliston sh.

MFO 00363



A.Sangirov

HUQUQIY XULOSA.

O'zaro tuzilayotgan shartnomaning shartlari, xususan, taraflarning huquqlar, majburiyatlari, kafolatlari, ishlarning bajarish muddatlari, hisob-kitob va to'lovlar, ishlab chikarish, fors-major, shartnomani bekor qilish xamda taraflarning mulkiy javobgarlik asoslari, nizolarni hal qilish tartibi va yakuniy talablar Fuqarolik kodeksining 26, 27, 28 va-37-boblari hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablariga mos keladi, shartnoma tuzuvchi shaxslar shartnomani imzolash huquqiga ega, shartnomani imzolasa bo'ladi deb hisoblayman.

Sirdaryo MYBX DUK

Bosh yuriskonsulti:-

F.X.Usarov

